<i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>	
The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution	580
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>	
Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	583
<i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	586
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdusolim Abdulkim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>	



Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING 6-SINFIDA O'QITILADIGAN "TABIIY FANLAR"DAN MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna

Qo'qon davlat universiteti

Fizika va astronomiya kafedrası dotsenti,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar" fanidan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda fan mazmunining o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mosligi, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, amaliy va tajribaviy mashg'ulotlarni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur metodik tavsiyalar o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tabiiy fanlar, dars rejasi, pedagogik texnologiyalar, tajriba, kuzatish, mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: This article discusses the methodology for effectively organizing classes in the subject "Natural Sciences" taught in the 6th grade of general secondary schools. The study pays special attention to the alignment of subject content with students' age and psychological characteristics, the use of interactive methods in the lesson process, and the organization of practical and experimental classes. These methodological recommendations serve to increase students' cognitive activity and to develop independent thinking and research skills.

Key words: natural sciences, lesson plan, pedagogical technologies, experiment, observation, independent thinking, scientific worldview, competency-based approach.

Аннотация: В данной статье рассматривается методология эффективной организации занятий по предмету "Естественные науки", преподаваемому в 6-классе общеобразовательных средних школ. Особое внимание уделяется вопросам соответствия содержания предмета возрастным и психологическим особенностям учащихся, использованию интерактивных методов в учебном процессе, а также организации практических и экспериментальных занятий. Данные методические рекомендации направлены на повышение познавательной активности учащихся, развитие самостоятельного мышления и исследовательских навыков.

Ключевые слова: естественные науки, план урока, педагогические технологии, эксперимент, наблюдение, самостоятельное мышление, научное мировоззрение, компетентностный подход.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6108-son farmoni ^[1] asosida Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 134-son Farmoni ^[2] asosida 2024-yil 1-sentyabrdan amaliyotga joriy etila boshlandi. Mazkur farmonga ko'ra tayanch o'quv rejasini takomillashtirish hamda o'zaro uzviy bog'liq fanlarni birlashtirish hisobiga fanlar sonini optimallashtirish vazifasi belgilandi.

Shuningdek, davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalariga Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda o'quv jarayoniga xalqaro tan olingan ta'lim dasturlarini joriy etish, shu jumladan davlat ta'lim standartlari doirasida o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritish hamda darsliklarni tanlashga (ona tili, adabiyot, tarix, tarbiya va huquq fanlaridan tashqari) ruxsat berildi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

2024-2025 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida yangi dastur asosida "Tabiiy fan (Science)" fani haftasiga 3 soatdan o'qitila boshlandi. Darslik va mashq daftari Marshall Cavendish Education litsenziyasi asosida o'zbek tiliga tarjima qilinib, mahalliyashtirilgan nashr orqali chop etildi [3, 4]. Mazkur darslik va dasturlar tasdiqlangan o'quv maqsadlariga to'liq mos keladi. 6-sinf darsligida darslik bilan ishlash tartibi yoritilgan bo'lib, undan so'ng kitob mundarijasi keltirilgan. Har bir bob va mavzu doirasida tegishli tadqiqotchilik ko'nikmalari hamda ilm-fanning hayotga tatbiqi masalalari bayon etilgan. Shunga ko'ra, o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan: 1-4-sinflarda qisman shakllantirilgan ko'nikmalar 5-sinfda yangi bosqichga ko'tarilib, 6-sinfda izchil davom ettirilgan. Unda tadqiqot metodlari va ularni tahlil qilish jarayoni yanada kengaytirilgan holda o'rganilgan.

TAHLIL NATIJALARI

Mavzular yoritilish uslubiga ko'ra ko'pgina hollarda muammo (savol) qo'yish bilan boshlanadi. Bunday mavzularni o'rganishda muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Darslikda grafik ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish izchil davom ettirilgan. Yuqorida qayd etilganidek, o'quvchilar uchun mashq daftarlari ham ishlab chiqilgan bo'lib, ularda darslikka o'xshash tarzda daftardan foydalanish bo'yicha zarur ma'lumotlar keltirilgan. Boblarning taxminiy strukturasi quyidagicha shakllantirilgan:

- 7-bob. Kuchlarning ta'siri;
- 7.1-amaliy ish. Gravitatsiyaning ta'siri;
- 7.2-amaliy ish. Suzuvchi shakllar;
- boshqotirma;
- bilimlar xaritasi;
- takrorlash;
- mustahkamlash.

Ayrim boblarda boshqotirma sifatida krossvordlar ham berilgan. Darslik va mashq kitobi bilan bir qatorda o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma ham ishlab chiqilgan [5].

6-sinf tabiiy fanlar o'qituvchisi uchun tayyorlangan metodik qo'llanma o'qitishning milliy va xalqaro ilg'or tajribalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda PISA va TIMSS xalqaro baholash dasturlari reytingida yuqori o'rinlarni egallab kelayotgan Singapur tajribasidan keng foydalanilgan. Darslarni tashkil etishda yuqorida keltirilgan (IV bob, 4.4-band. Ta'limda 5E modeli) yondashuv asos qilib olingan. 5E modeli tabiiy fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuv bo'lib, u beshta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: jalb qilish (engagement), tadqiq etish (exploration), tushuntirish (explanation), qo'llash (elaboration) va baholash (evaluation). O'quvchilar darslikdagi har bir mavzuni aynan ushbu yondashuv asosida o'zlashtiradilar.

Mazkur metodik qo'llanmada 5E modeli, o'qitish usullari, har bir mavzu bo'yicha dars ishlanmalari, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, darslik hamda mashq daftariidagi topshiriqlarning javoblari keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar o'qituvchilarga darslarni samarali tashkil etish orqali "Tabiiy fanlar" o'quv dasturida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida savollarni to'g'ri qo'yish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ikki tomonlama muloqotni ta'minlaydi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda quyidagi usullardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi:

- modellardan foydalanish;
- iskala (scaffolding);
- tadqiqot orqali o'rganish;
- dialog; savollardan foydalanish;
- ilmiy atamalardan foydalanish;
- o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash va bartaraf etish.

O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmadan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ham ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur qo'llanmada quyidagi ruknlar o'rin olgan:

bob bo'yicha o'quv maqsadlari;

"O'quvchilarning tayanch tushunchalari";



“Ish rejasi”; “Ilmiy atamalar”;

“O‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlar”;

“Dars rejasi”;

“Darsning tayanch bilimlarni faollashtirish”;

“Amaliy faoliyat”, “Yangi bilimlarni kashf etish” va “Darsni yakunlash” bosqichlari uchun muqobil topshiriqlar;

“O‘quvchilarga differensial yondashish”;

“Ota-onalar bilan ishlash”;

“Qo‘shimcha o‘quv topshirig‘i”;

“Mashq daftariidagi topshiriqlarning javoblari” hamda “Ilovalar”.

Ushbu ruknlarda ijodiy yondashuv asosida o‘quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish va o‘quv materiali mazmunini samarali o‘zlashtirish yo‘llari yoritilgan.

Misol tariqasida 7-bob – Kuchlarning ta’siri, 7.1-mavzu – “Massa, og‘irlik va og‘irlik kuchi” mazmuni tahlil qilindi. Bobni o‘rganishdan oldin o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim: jism tinch holatda bo‘lsa ham unga bir nechta kuchlar ta’sir qilishi mumkinligini bilishi; jismga ta’sir etuvchi kuchlarning nomi, kattaligi va yo‘nalishini ko‘rsatishda kuch diagrammalaridan foydalana olishi; turli kuchlarni (gravitatsiya, tayanch, ko‘ta-ruvchi, ishqalanish, havo yoki suv qarshiligi kuchlari) farqlay olishi; Yerning gravitatsiya kuchi jismni Yer markaziga tomon tortuvchi kuch ekanligini tushunishi ^[6]. Dars rejasi bo‘yicha mazkur mavzuni o‘rganishga 3 soat ajratilgan bo‘lib, har bir dars 1 yoki 2 soat davom etishi mumkin.

Darsning rejasi

Darsga ajratilgan soat: 3 soat (Har bir dars 1 yoki 2 soat bo‘lishi mumkin.)

Mavzu	Dars soati	Fan mazmuni bo‘yicha o‘quv maqsadlari*	Tadqiqotchilik ko‘nikmalari*	Fanning hayotga tatbiqi*	Foydalaniladigan manbalar, kerakli material va jihozlar
7.1 Massa, og‘irlik va og‘irlik kuchi	3	6Fke.01 Nyuton(N) larda o‘lchanuvchi og‘irlik va kilogramm(kg)-larda o‘lchanuvchi massa o‘rasidagi farqni tavsiflashi. 6Fke.02 Gravitatsiyaning ta’sirini tushuntirish va gravitatsiya o‘zgarganda jismning og‘irligi o‘zgarishi, ammo massasi o‘zgarmasligini esda saqlashi	6TKmr.03 Tanish va notanish kontekstlarda tegishli ilmiy bilimlar va tushunchalarni nazarda tutgan holda Tahlil qila olishlari; 6TKto‘.01 Tajriba va kuzatish natijalari, turli ma’lumot manbalaridan foydalanib jonli, jonsiz obyektlarni saralashi, guruhlashi (klassifikatsiya qilishi); 6TKto‘.04 Ishonchli ma’lumotlar olish uchun, kuzatuvlar va o‘lchovlarni takrorlash kerakligini hal qilishi; 6TKto‘.05 O‘lchashlarni to‘g‘ri bajara olishi; 6TKto‘.07 Savollarga javob berishda tegishli dalillarni to‘plash va saralash uchun, qo‘shimcha ma’lumot manbalaridan foydalanishi; 6TKto‘.08 Ilmiy izlanish turiga mos bo‘lgan jadval va sxemalarga kuzatishlar va/yoki o‘lchash natijalarini to‘plashi va qayd eta olishi; 6TKtbx.01 Tahlilning aniqligini natijalar asosida tavsiflashi;		Darslik, 96–99-betlar Mashq daftari, 63–64-betlar Darslik, 97-bet To‘rt xil jism (masalan, chizg‘ich, qalam qutisi, tushlik solinadigan quti, kitob), elektron tarozi Mashq daftari, 63–64-betlar Masshtabli qog‘oz, internet yoki ilmiy kitoblar Qo‘shimcha Qalam Koinotda erkin uchib yurgan astronavi surati Oyda yurgan astronavi tning videoklipi Fikrlash ramkasi 5 – Solishtirish va farqlash (“O‘qituvchi kitobi”ning orqa tomoni)


Massa, og'irlik va og'irlik kuchi

Soatlar soni: 3

Quyidagi dars rejasini o'qituvchi o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda tahrir qilishi va moslashtirishi mumkin.

1-dars (90 daqiqa)	
Tayanch bilimlarni faollashtirish (5 daqiqa)	"Darslik" mazmunidagi ushbu bobning o'quv maqsadlari ro'yxatiga murojaat qilib, o'quvchilarga bob haqida umumiy ma'lumot berishingiz mumkin. Darsni o'quvchilarga "Darslik"ning 96-betidagi rasmni ko'rsatishdan boshlang. O'quvchilar nima uchun kemalar suvda suzishga qodir deb o'ylashlarini muhokama qilishga taklif qiling. O'quvchilardan ba'zi kemalar nega cho'kib ketishi mumkinligini so'rang. O'quvchilarni yozma mashqni yakunlashga undang. (Kutilgan javob: Javoblar turlicha bo'lishi mumkin.)
O'quvchilarni o'tgan dars bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash (5 daqiqa)	"Darslik"ning 97-betidagi "O'ylab ko'ring" qismiga murojaat qiling So'rang: Jismning massasi va og'irligi bir xilmi? (Kutilgan javob: Javoblar turlicha bo'lishi mumkin.) O'quvchilarning javoblari 1-Noto'g'ri tushunchani aniqlashga yordam beradi (mavzu boshidagi "O'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar" ga qarang). O'quvchilarning to'g'ri tushunchadan xabardor bo'lishlarini ta'minlash maqsadida tushuntirishlar bering.
Amaliy faoliyat (20 daqiqa)	"Birgalikda o'rganamiz!" O'quv dasturining "Tadqiqotchilik ko'nikmalari" qismi bilan bog'lanish uchun, o'quvchilarga natijalar asosida Tahlillar qilish va Tahlillarning to'g'riligini tavsiflash talab qilinishi haqida ma'lumot bering. O'quvchilar juftlikda ishlashlari mumkin. So'rang: Jismlarning massalarini qanday taqqoslash mumkin? Qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga siz, har bir jismni qo'lda ushlab turganlarida jismlar og'irligini qanchalik his qilishayotanini taqqoslashlari haqida ko'rsatma berishingiz mumkin. Siz o'quvchilarga yordamlashish uchun elektron tarozidan qanday to'g'ri foydalanishni ko'rsatishingiz mumkin.. To'g'ri va ishonchli natijalarga erishish maqsadida o'quvchilarni kerak bo'lsa o'lchashlarni takrorlashlariga undang. O'quv dasturining "Tadqiqotchilik ko'nikmalari" qismi bilan bog'lanish uchun o'quvchilarga o'lchashlarni jadvalga yozib olish va natijalarni ustunli diagrammada taqdim etishlarini ma'lum qiling. O'quvchilar o'z natijalarini sinfdoshlariga ko'rsatishlari kerak. ESLATMA: O'quvchilarni o'lchashlar va ma'lumotlarni yig'ishda sherik bo'lib ishlashga va bir-birlariga yordam berishlariga undang. O'quvchilarni o'z g'oyalarini hurmat bilan yetkazishga undang.
Yangi bilimlarni kashf etish (50 daqiqa)	"Darslik"ning 98- betidagi "Birgalikda o'rganamiz"qismiga murojaat qiling. O'quvchilarga 5-sinfda massa haqida o'rganganlarini eslatib. Shuni aytib o'tish kerakki, massa jismdagi modda miqdorining o'lchovidir. So'rang: Massani qanday o'lchaymiz? (Kutilgan javob: Elektron tarozidan foydalanib, kilogramm yoki grammlarda) O'quvchilarga og'irlik kuchi massadan farq qilishini tushuntiring. Jismning og'irlik kuchi -jismga ta'sir qiluvchi gravitatsiya kuchi bo'lib, nyuton (N) birligida o'lchanadi. So'rang: Nima uchun odamlar yuqoriga otlangan jismlar yana qaytib tushishi kerak, deyishadi? (Kutilgan javob: Gravitatsiya kuchi barcha jismlarni Yer markaziga tomon tortadi.) So'rang: Nima uchun og'irlik kuchi birligi sifatida "nyuton" olingan? (Kutilgan javob: Gravitatsiya g'oyasini ilk bor taklif qilgan olim Isaak Nyuton sharafiga qo'yilgan.) "Darslik"ning 98-betidagi Yerning tortishish kuchi ta'sirini tushuntiruvchi videoni* qo'yish uchun MCE Cambridge ilovasidan foydalaning. MCE Cambridge ilovasi orqali videoni ekranga chiqaring. O'quvchilardan "Darslik"ning 97- sahifasida "Birgalikda tadqiqot o'tkazamiz!" mashqiga e'tibor berishlarini so'rang. O'quvchilardan har bir jism og'irligini hisoblashni va topilgan qonuniyatga izoh berishlarini so'rang. Har qanday kutilmagan natijalarni muhokama qiling. "Darslik"ning 99-betiga murojaat qiling. So'rang: Siz Yerda ham, Oyda ham bir xil og'irlikga ega bo'lasizmi? (Kutilgan javob: Javoblar turlicha bo'lishi mumkin.) O'quvchilarning javoblari 2-Noto'g'ri tushunchani aniqlashga yordam beradi (mavzu boshidagi "O'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar" ga qarang). O'quvchilarning to'g'ri tushunchadan xabardor bo'lishlarini ta'minlash maqsadida tushuntirishlar bering.



	O'quvchilarga, agar gravitatsiya kuchi o'zgarsa, og'irlik ham o'zgarishini tushuntiring, shunda ular Oyda, Yerga qaraganda kichikroq og'irlikka ega bo'lishlarini anglashadi. So'rang: Siz Yerda ham, Oyda ham bir xil massaga ega bo'lasizmi? (Kutilgan javob: Ha.) O'quvchilarga massa og'irlikka bog'liq emasligini tushuntiring, shunda ular Oyda va Yerda bir xil massaga ega bo'lishlarini anglashadi. So'rang: Elektron tarozi aslida nimani o'lchaydi? (Kutilgan javob: Massani) O'quvchilarga odamlar ko'pincha "massa" va "og'irlik" so'zlarini bir-birining o'rnida ishlatishlarini ta'kidlang, ammo ularning farqini bilish muhimdir. Mashq daftarida O'quvchilarni 5-O'ylash ramkasi - Massa va og'irlik o'rasidagi farqlarni ro'yxatlash uchun taqqoslash va farqlash qismlarini to'ldirishga undang.
Darsni yakunlash (10 daqiqa)	O'quvchilarni "Darslik"ning 99-sahifasida "Bilimingizni sinab ko'ring" qismidagi savolga javob berishlariga undang. (Kutilgan javob: Massamiz bir xilda qoladi, lekin gravitatsiya kuchi kamayishi bilan og'irligimiz ham kamayadi). O'quvchilardan o'zlashtirgan bilimlarini baholash uchun darslikning 99-sahifasidagi "Quyidagi qaysi ko'nikmalarni egalladingiz?" rukniga murojaat etishni so'rang. Ushbu dars oxiriga qadar barcha noto'g'ri tushunchalar bartaraf etilganligiga ishonch hosil qiling.
	Darsning "Tayanch bilimlarni faollashtirish" bosqichi uchun muqobil topshiriq So'rang: Qaysi biri ko'proq massaga ega – 1 kg qush patlarni yoki 1 kg oltin? (Kutilgan javob: Javoblar turlicha bo'lishi mumkin.) Ko'pgina o'quvchilar oltinning massasi ko'proq deb o'ylashlari mumkin. Ikkalasi ham bir xil massaga ega ekanligini aytib buni to'g'rilang. O'quvchilarga o'xshash shakllarga ega bo'lgan turli jismlarni ko'rsating va qaysi birining massasi ko'proq ekanligini aniqlashga undang. Javoblarni tekshirish uchun elektron tarozidan foydalaning.
	Asosiy dars uchun muqobil g'oyalar O'quvchilarga bir nechta jismlar bering. O'quvchilar har bir jismning massasi va og'irligini topsinlar. Keyin o'quvchilar har bir jismning belgilangan balandlikdan tushishi uchun ketgan vaqtni o'lchasinlar. O'quvchilar nima bo'lishi haqida Tahlil qilishlari kerak. So'rang: - Qaysi jism oldinroq yerga tushdi? - Qaysi jismning yerga tushishi uchun eng ko'p vaqt kerak bo'ldi? O'quvchilar ma'lumotni jadval va grafiklar ko'rinishida yozib olishlari mumkin.
	"Darsni yakunlash" bosqichi uchun muqobil topshiriq O'quvchilar parashyutning rasmni ko'rib chiqishlari kerak. Odamning massasi o'rtacha 50 kg ekanligini ayting. So'rang: Parashyutni Yerga tomon qanday kuch harakatga keltiradi? Uning og'irligi qanday? (Kutilgan javob: Gravitatsiya; Og'irligi: $50 \times 9,8 = 490 \text{ N}$) Doskaga quyidagi so'zlarni yozing: gravitatsiya, massa, og'irlik. So'rang: Bu so'zlarning barchasi bir xil ma'noni anglatadimi? (Kutilgan javob: Javoblar turlicha bo'lishi mumkin.) O'quvchilarni, o'z javoblarini aytishlarini va farqlarni tavsiflashga undang.
	Qo'shimcha o'quv topshirig'i O'quvchilardan gravitatsiya, og'irlik va massa tushunchalarini yoritadigan kichik sahna ko'rinishini rejalashtirish va bajarishlarini so'rang.
	Ota-onalar bilan ishlash Ota-onalarni kundalik ishlar davomida farzandlari bilan suhbatlashishlariga undang va ular foydalanayotgan jismlarning massalarini, shuningdek, bu jismning og'irligi bilan qanday bog'liqligini aytib o'ting. kg va g kabi birliklarni nazarda tutganda og'irlik tushunchasi o'rniga massa kabi to'g'ri tushunchalardan foydalanishga undang. Ota-onalar kundalik hayotdagi misollar bilan birga massa, og'irlik va gravitatsiya tushunchalarini ko'rsatib, farzandi bilan plakat yasashlari mumkin.
	O'quvchilarga tabaqalashgan yondashish Murakkab topshiriq: O'quvchilar vaznsizlik tushunchasini tadqiq qilishlari va jismlar qanday holatlarda vaznsiz bo'lishlarini aniqlashlari mumkin. O'quvchilarni yopiq parashyut arenalari (indoor skydiving arenas) qanday ishlashi haqida ko'proq ma'lumot olishlariga undang. *indoor skydiving arenas –bu maxsus aeronavtika tunneli bo'lib unda sun'iy ravishda vaznsiz holatga o'tish mumkin. Vaznsiz holatni o'zlarida sinab ko'rishni hohlaganlar uchun maxsus samolyotda parvoz paytida tabiiy ravishda vaznsiz holat vujudga keltiriladi. Topilgan natijalar o'zlari tanlagan formatda taqdim etilishi mumkin. Yordam beruvchi mashqlar: O'quvchilarga bir tomonida kundalik buyumlar, ikkinchi tomonida ularning massasi tasvirlangan flesh-kartalarni bering. Har bir karta uchun o'quvchilar jismni nomlashlari va uning massasini oldindan aytib berishlari kerak. Ular o'z taxminlarini kartaning orqa tomonida yozilgan haqiqiy massa bilan tekshirib, keyin har bir jismning og'irligini hisoblab chiqadilar. O'quvchilar o'z natijalarini jadval shaklida taqdim etishlari mumkin.

Boshqa darslar shunga o'xshash tartibda o'tkaziladi.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar" fanidan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quvchilarda tabiat hodisalariga nisbatan ilmiy qarashlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, tajriba, kuzatish va amaliy mashg'ulotlarga asoslangan ta'lim jarayoni o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Mazkur metodik yondashuvlar orqali fanlararo integratsiyani ta'minlash, kompetensiyaviy yondashuv asosida darslarni tashkil etish hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, 6-sinf o'quvchilarida tabiatni anglash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-11-06 dagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6108-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-05-11 dagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 134-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6008663>
3. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik / Jasvinder K. Randhava, Natasha Mehta. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2024. – 172 b.
4. Tabiiy fanlar. Mashq daftari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun mashq daftari / Jasvinder K. Randhava, Natasha Mehta. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2024. – 146 b.
5. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun o'qituvchi uchun metodik qo'llanma / Jasvinder K. Randhava, Natasha Mehta. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2024. – 188 b.
6. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Tabiiy fanlar o'quv dasturi", 2025-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.